

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.No'monzoda	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	331
F.A.Hamdamova	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni	334
M.A.Nishonov	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi	338
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari	343
S.S.Asatov	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati	346
D.Q.Majidova	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
S.R.Qutlimuratov	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati	355
N.U.Jamalova	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
M.A.Matmusayeva	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi	365
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	368
F.A.Ibroximov	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati	374
R.B.Tursunov	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish	379
D.B.Toshaliyev	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
U.Xolova	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida)	386
S.E.Baymuradova	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
B.M.Qandov	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
A.M.To'rayev	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida	400
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	404
J.Sh.Mamayusupov	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
Y.S.Sidiqova	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida	413
B.X.Karimov	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni	418
Y.M.Namozova	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida	423



УО'К: 378.014.15

**BO'LAJAK GEOGRAFIYA O'QITUVCHILARINI O'QUV JARAYONIDA LOYIHA
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASH MAZMUNI**

**СОДЕРЖАНИЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ГЕОГРАФИИ К
ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ПРОЕКТНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ**

**CONTENT OF PREPARING FUTURE GEOGRAPHY TEACHERS TO USE PROJECT
TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

Hamdamova Feruzaxon Alijon qizi 
Farg'onan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalananishga tayyorlashning nazariy asoslari, bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalananishga tayyorlashning metodik tizimi, bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalananishga tayyorlash samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalananishga tayyorlash mazmuni tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы подготовки будущих учителей географии к использованию проектных технологий в учебном процессе. Изучается методическая система подготовки будущих учителей географии к использованию проектных технологий и оценивается эффективность этой подготовки. Также анализируется содержание подготовки будущих учителей географии к использованию проектных технологий в учебном процессе.

Abstract

This article discusses the theoretical foundations for preparing future geography teachers to utilize project technologies in the educational process. It examines the methodological system for training future geography teachers in the use of project technologies and evaluates the effectiveness of this preparation. Additionally, the content of preparing future geography teachers to use project technologies in the educational process is analyzed.

Kalit so'zlar: bo'lajak geografiya o'qituvchilari, texnologiya, kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, shakl, metod, vosita, baholash, kreativ fikrlash, refleksivlik, loyiha texnologiyaları.

Ключевые слова: будущие учителя географии, технологии, компетентность, совершенствование, педагогический, технологический, модель, дидактика, форма, метод, средства, оценка, креативное мышление, рефлексивность, проектные технологии.

Key words: future geography teachers, technology, competence, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, form, method, tools, assessment, creative thinking, reflexivity, project technologies.

KIRISH

Ta'limg sifati va samaradorligini oshirish yo'naliشida vujudga kelayotgan zamonaviy talablar sifatida pedagogik jarayonlar ishtirokchilarida o'zaro munosabatlarni, subyekt-obyekt va subyekt-subyekt munosabatlarini tahlil qilish va muvofiqlashtirish; kompetensiyaviy diagnostika; shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy ta'limg texnologiyalarini amaliyatga tatbiq etishga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish, tahlil qilish va xolisona baholash masalalarini keltirish mumkin. Bu nafaqat ta'limg sifati va samaradorligini oshirish yo'naliشidagi muammolarni, balki ta'limg sifatini ta'minlashning innovatsion metodlarini amaliyatga tatbiq etish masalalarini ilgari surmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'quv jarayonini loyihalash, o'qitish jarayoniga ta'limg texnologiyasini tatbiq etish kabi masalalar R.X.Djurayev, N.N.Azizzodjayeva, Sh.A.Abdullayeva, O.Roziqov, M.H.Usmonboyevalar va boshqalarning ishlarida yoritilgan bo'lib, geografiyalarni o'qitish metodikasi, vositalari, konsepsiysi, tamoyillari, lingvometodik asoslariga oid masalalar J.B.Bo'ronov, S.N.Aliyev,

ILMIY AXBOROT

A.M.Bushuy, J.J.Jalolov, L.T.Axmedova, F.M.Rashidova, I.M.Tuxtasinov, K.Sh.Muradkasimova, F.X.Ibragimova, K.D.Riskulovalar tomonidan o'rganilgan. Xorijlik olimlar Max Walter, Michael West, Anthony Philip, Maximilian Berlitz, I.L.Bim, N.N.Boldirev, N.D.Galskova, YE.N.Zaretskayalar, YE.M.Vereshagin, V.G.Kostomarov, V.V.Oshepkova, V.V.Safonovalar tomonidan innovatsion ta'lif masalalari o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda uzlusiz ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lif jarayonini tashkil etish, boshqarish mexanizmini takomillashtirish, ta'lif sifati va samaradorligini oshirishning an'anaviy metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan ta'lif boshqaruvini shakllantirishni taqozo etmoqda. Pedagogik hodisalarning talqini o'z faoliyatini tashkil etish nazariyasiga asoslangan nuqtai nazar doirasida murakkab va o'ta zarur masala hisoblanadi.

Loyiha texnologiyasidan ta'lif jarayonida foydalanishning yetakchi tamoyili shaxsga yo'naltirilganlidir. Ushbu tamoyil asosida ta'lif tizimida o'qituvchi-talaba harakatlarining asosiy predmeti ta'lif oluvchining kompetensiyalari va bu chegaradan o'tish layoqatlardir.

"Talaba o'z shaxsiy imkoniyatlari chegarasidan tashqariga chiqishni o'rganar ekan, aniq pedagogik vaziyatlarda geografiya fanidan o'quv ko'nikma va malakalarini egallaydi. Bunday vaziyatda o'qituvchi ijtimoiy-madaniy mavqeni egallaydi, u talabani o'quv faoliyatiga olib kiradi. Pedagog amaliy harakatlaridan sof madaniyatni ajratib olib, talabalarga taqdim etadi".

Geografiya fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlarda loyiha texnologiyasining qo'llanilishi quyidagi shart-sharoitlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb topdir:

1. Talabaning ijodiy-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish.
2. Ta'lif beruvchi va tahsil oluvchi orasidagi hamkorlik.
3. Ta'lif oluvchi, tengdoshlar orasidagi hamkorlik hamda sog'lom raqobat muhiti
4. Talabaning shaxsiy hamkorlikka yo'naltirilgan faoliyati.

5. Talabaning didaktik ta'minot, elektron axborot resurslari vositasida ta'limi maqsadlarga erishganligini tahlil qilish muhiti va yo'llari.

Shunday qilib, Geografiyanı o'qitishda uzlusizlik va uzyiylik tamoyillariga asoslangan loyiha texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o'qituvchi shaxsi davlat tomonidan ta'lif islohotlari jarayonida belgilangan barcha ustuvor vazifalarni amalga oshirishda bosh subyektlardan biri sifatida maydonga chiqar ekan, mamlakatimiz ta'lif tizimining har bir bosqichida, mакtabdan tortib to oly ta'lif tizimiga qadar, pedagoglarning fidokorona mehnati, ishtiyoqi, ijodiyligi, nufuzi, kuchi va mehnati samarali va natijali bo'lishi lozim.

Geografiya mashg'ulotlarda o'qish, yozish, gapirish, tinglab-tushunish ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv mustaqilligini hosil qilish muhim masalalardan biri. Shu sababli loyiha texnologiyasida bunday maqsadga yo'naltirilgan o'quv hamkorligini tashkil etish asoslarini ishlab chiqish uchun, birinchi navbatda, o'quv jarayoni subyektini shakllantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki o'quv jarayoni subyektlari o'qish layoqatlari, harakat usullarini egallahga moyil bo'lib, hamkorlikdagi o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Binobarin ta'lif maqsadlarini loyihalashda va didaktik jarayonni modellashtirishda geografiya o'qituvchilari qo'yilgan pedagogik vaziyatlarni optimal modifikatsiyalashni bilishlari lozim.

Loyiha texnologiyasida o'quv maqsadlariga erishish uchun ijobjiy mazmundagi ziddiyatlarni hosil qilish lozim bo'ladi. Geografiyadan taqdim qilinayotgan material talabalarning hamkorlikdagi o'quv faoliyatidagi alohida operatsiyalarni taqsimlashni anglatmaydi, aksincha, ularni turli-tuman nuqtai nazarlarni qabul qilish va muvofiqlashtirishga o'rgatadi. Bunda bir butun o'quv harakati doirasida o'rganilayotgan muammoga nisbatan turlicha nuqtai nazarlarga ega bo'lish talab etiladi. O'zaro munosabatlarni bunday tashkil etish orqali ularning tarqoq holdagi nuqtai nazarlarini muvofiqlashtirish vujudga keladi.

Tajriba-sinov ishlari geografiya mashg'ulotlarda loyiha texnologiyasidan foydalanish orqali qo'yidagi natijalarni kafolatlashi aniqlandi:

- a) asosiy o'quv harakatlari imkon qadar to'liq amalga oshirish;
- b) talabalarda intellektual va shaxsiy sifatlarning intensiv rivojlanishi kuzatiladi;

v) geografiyanı o'qitishda ta'llim jarayonini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish, tabaqalashtirish, o'quv jarayonini faoliyatli yondashuv hamda shaxsga yo'naltirilganlik prinsiplari asosida tashkil etish ehtiyoji qondiriladi.

Shuningdek, geografiya mashg'ulotlarida loyiha texnologiyasidan foydalanilganda talabalarning matn bilan mustaqil ishlashi tashkil etiladi. Natijada metakognitiv tajriba to'planadi, shaxsning boshqariladigan mustaqil faoliyati shakllanadi. Pirovardida o'quv materialining bir necha marta takrorlanishi orqali talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari oshadi. Bunda talabalar uchun loyiha texnologiyasidan foydalanish bosqichlari ajratib berildi:

1) tanishish (muammo, mavzu va kim bilan hamkorlik qilish), 2) tadqiqot (jarayon: devoriy gazeta, maqola, adabiyotlar ro'yxatini tuzish, lug'at, biznes reja tuzish, intervyu, chelenj, tarjima(maqol, doston, ertak), bayram ssenariylari, videoroliklar...)), 3) taqdimot, 4) yakuniy natijani va baholash.

Loyihani amalga oshirishda ishni tashkil etishning turli variantlari tatbiq etildi: kichik guruhlarga bo'lish va mavzular hamda ishlarni taqsimlash; matn bilan individual ishslash; kichik guruhlar shaklida ishslash; ma'lumot almashinuvi; kichik guruhlar natijalarining taqdimoti; umumiy natijani chiqarish; natijalarni o'zaro baholash va loyihani yakunlash.

Oliy ta'llim o'qituvchilari uchun loyiha texnologiyasidan foydalanishning asosiy bosqichlari ajratib berildi, ular:

1) mavzular komponentiga mos ravishda muammoli vaziyatni tanlash va tarkibiy qismlarni belgilash; 2) o'qitish darajasini belgilash va har bir rolli komponent vazifasini aniqlab berish; 3) belgilab olingan loyiha vazifasiga mos ravishda Internet tarmog'idan ma'lumot izlash; 4) ma'lumot bilan ishslashning bir bosqichi uchun vaqt reglamentini belgilab olish; 5) natija muddati, shakli va uni rasmiylashtirishni, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasiga mos shaklda baholash mezonlarini aniqlab olish.

Geografiya mashg'ulotlarida tatbiq etiladigan loyiha texnologiyasi talabalarning o'zlashtiriladigan materiallarni tushunishlari uchun qulay bo'lishi lozim. O'qituvchi bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalarning hamkorlikda faoliyat ko'rsatishlariga erishish uchun muvaffaqiyatli vaziyatlarni vujudga keltirish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda darsliklardagi o'quv materiallari geografiyadagi harakatlar va tushunchalarini o'zlashtirishning umumiy usullarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Shu bilan bir qatorda geografiyadan o'quv materiali mazmuniga topshiriqlar tizimini singdirishda bilimlar, ma'lumotlarning mazmuni va uni o'zlashtiradigan talabalarning idrok etish xususiyatlari, mantiqiy fikrlash darajalari bilan sezgilarini, so'z hamda ko'rgazmali timsollar, anglangan va anglanmagan holatlar, hodisalar orasidagi mutanosiblik ta'minlanishi lozim. O'quv materiali mazmunining o'ziga xosligi o'qitish metodikasida o'z ifodasini topadi.

Geografiya mashg'ulotlarida loyiha texnologiyasi ta'llim mazmuni, talabalarda aqliy faoliyatni jadallashtirish, istiqbolga yo'naltirilgan muvaffaqiyatli faoliyatni tashkil qilish, har bir ta'llim oluvchining samarali faoliyatini nazarda tutgan holda tanlanishiga e'tibor qaratiladi.

Geografiya mashg'ulotlarida loyiha texnologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

talabalar ongida geografiya fanining yaxlit manzarasini shakllanadi;

yagona metodologik, metodik, didaktik va psixologik tizimga amal qilinadi;

talabalar va har bir ta'llim oluvchining psixologik xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olinadi;

fanlararo aloqadorlik va o'quv fanlari mazmuni orasida integratsiyaga riousha etiladi;

metodik va didaktik materiallar yoki nazoratning turli ko'rinishlari, shuningdek, keys stadi, assesment, veb-kvest, testlardan foydalangan holda, talabalarda fanni o'rgatishga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash dinamikasi mujassamlashtiriladi;

darslarning tashkiliy shakllarini o'zgartirish uchun imkoniyat yaratiladi, ya'ni jamoaviy ish shaklidan kichik guruhlarga, undan esa aralash shakllarga o'tish ta'minlanadi;

o'qituvchi salohiyati va kasbiy mahoratidan yangicha o'quv vaziyatlarini tashkil etishda maksimal darajada foydalanishga erishiladi;

talabalarda fuqarolik va fidoiylik tuyg'ularini shakllantirish konsepsiyalariga ustuvorlik beriladi.

XULOSA

Geografiya mashg'ulotlarida takomillashgan loyiha texnologiyasi o'qituvchi tomonidan o'qitishning zamонави shakllari, metodlari va usullarini taqdim etish asosida rivojlantiriladi. Bunday vositalar sirasiga tabaqlashtirilgan ishlar uchun mo'ljallangan topshiriqlar, mantiqiy tavsifdagi mashqlar, talabalarni geografiyada kasbga oid savollar, topshiriqlar, baholash, o'z-o'zini baholash va nazorat qilish tavsifdagi topshiriqlar hamda turkum mashqlarni kiritish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

25. Азимова Н.Э. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини маънавий-ахлоқий тарбиялаш технологияси. Педаг. фан. номз. дисс. ... автореф. – Т.: 2012. – 23 б.
26. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 31 с.
27. Ибрагимова Ф.Х Бўлажак инглиз тили ўқитувчиларида Англия маданиятига қизиккышни орттириш асосида касбий компетентлигини ривожлантириш: Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) дисс. ... автореф. –Т.: 2018. – 44 б.
28. Кларин М.В. Инновационные модели учебного процесса в современной зарубежной педагогике: Дисс. д-ра пед. наук. –М.: 1994. – 365 с.
29. Розиков О. Дидақтика. –Тошкент : “Фан” нашриёти, 1997. –60 б.
30. Селевко Г.К. Технологии развивающего образования – М.: НИИ шк. технологий, 2005. – 182 с.
31. Юсупова М.А. Тил таълимида лойиҳалаш технологияларининг қўлланиш усувлари // Илм сарчашмалари илмий ва илмий – Методик журнал. 2019. –1/2. –137-140 б